

## O‘ZBEK TILIDA SHART GAPLARNING IFODALANISHI

**Majidova Maftuna Murod qizi**

[majidovamaftuna33@gmail.com](mailto:majidovamaftuna33@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*O‘zbek tilshunosligida shart munosabatlarining ifodalanish masalalari sezilarli darajada o‘rganilmagan bo‘lsada, qisman o‘zbek tili sintiksisida tadqiq qilingan. O‘zbek tilshunosi Sh. Shukurovning e‘tiroficha, hozirgi o‘zbek tilida shart munosabatlari bilan bog‘liq quyidagi ilmiy-nazariy muammolar o‘z yechimini topishi zarur ular o‘z ichiga quyidagi muammolarni oladi; shart mayli formalarining zamon kategoriyasi bilan munosabati, shart munosabatini ifodalovchi analitik formalar tavsifi, shart munosabatlarining ko‘rinishi va xarakteri. Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida shart gaplarning tasnifini ko‘rib chiqamiz.*

***Kalit so‘zlar:** shart, shart gap, qo‘shma gap, ergashgan gap, bog‘langan qo‘shma gap, murakkab gap.*

Gaplar turli nuqtai nazardan: tuzilish, gapirish, maqsadi, barcha bulaklarning bor-yo‘qligiga ko‘ra turlarga ajratiladi. Gaplar tuzilishi jihatdan ikki turga bo‘linadi soda va qo‘shma gaplar. O‘z navbatida qo‘shma gaplar ham alohida turlarga bo‘lib o‘rganiladi. Ular quyidagilardir;

- 1) bog‘langan qo‘shma gaplar,
- 2) ergashgan qo‘shma gaplar,
- 3) murakkab qo‘shma gaplar.

Ikki yo undan ortiq teng huquqli gaplardan tashkil topgan gaplar **bog‘langan qo‘shma gap** deyiladi. Misollar; Hamma quvnoqlik bilan so‘zlashmoqda, faqat Arslonqul negadir hayolchan o‘tirardi.

Qo'shma gaplarning ergashgan turi tarkibida ikki yo undan ortiq gaplar bo'lib, ulardan biri bosh gap, qolganlari esa tobe gaplar bo'ladi. Bosh gapga tobe bo'lgan gap **ergash gap** deb yuritiladi. Ergash gaplar bosh gapdagi birorta so'zga yoki bosh gapning hammasiga tegishli bo'lib, bosh gapdan anglashilgan fikrni turli yo'llar bilan to'ldirib keladi.

Misollar ;

1. Xosil yigib olingach, ikki qayta urug' ekildi.
2. G'alla mo'l bulgani uchun, omborlar to'lib ketdi.
3. Yomg'ir tinsa, shaxar buylab sayrga chiqamiz.

Bu misollarning birinchisidagi ergash gap **payt**, ikkinchisidagi — **sabab**, uchinchisidagi — **shart** ma'nolarini ifoda etmoqda. Ergash gaplarning vazifalariga qarab, ularni **payt, sabab, shart, aniqlovchi, tuldiruvchi ergash gap** kabi turlarga ajratiladi. Bu barcha tillarga xos hususiyatdir.

**Murakkab qo'shma gaplarni** aralash qo'shma gaplar deb atasa ham bo'ladi. Gaplarning bu turi to'g'risida ham bir qancha fikrlar bor. Ba'zilar murakkab qo'shma gaplarga tarkibida bitta bosh gap va kamida ikkita ergash gapi bulgan til birliklarini kiritishsa, boshqalar uchta va undan ortiq teng huquqli gaplar yig'indisidan tuzilgan bog'langan qo'shma gaplarni kiritishadi va xokazo.

Agar bunga amal qilinsa, unda gaplarning turi cheksiz bulib ketishi mumkin. Shuning uchun murakkab qo'shma gap deganda kamida ikkita teng huquqli (ya'ni bog'langan) va bir yoki bir nechta ergash gaplardan tashkil topgan gaplarni tushunish maqsadga muvofiqdir. Bu fikr ko'pchilik tomonidan ma'qullanadi. Misollar; Sog'lik yaxshi bo'lsa, ish ham unumli bo'ladi, kishi charchamaydi. Bahor keldi, ammo havо ancha sovuq, chunki qish biroz cho'zilib ketdi ushbu gaplar murakkab qo'shma gaplarga misol bo'la oladi.

O'zbek tilida shart ma'nosi asosan qo'shma gaplar vositasida ifodalanadi. Bunday gaplar nima bo'lsa, nima bo'ladi? konstruksiyasida tuziladi, ya'ni birinchi gap ikkinchi gapdagi voqeaning qanday shart bilan yuzaga kelishini bildiradi.

Masalan: Havo ochilib tursa, ertaga saylga chiqamiz. O‘rtada kelishmovchilik bo‘lmasa, bu masala o‘z vaqtida hal bo‘lar edi.

**Shart ma’nosini ifodalovchi** gaplar fe’lning shart mayli shakli **-sa** yoki **-ganda**, **-ganda** edi vositalari orqali bog‘lanadi, shuningdek, ma’noni kuchaytirish uchun gapning boshida **agar, agarda, mabodo** so‘zlarini qo‘llash mumkin. Masalan: Agar hayot karvon bo‘lsa, sarbon muallim.

Shart ma’nosi sodda gaplarda **shart, kerak, zarur, darkor, lozim** so‘zlari orqali ham bildiriladi. Masalan; Hamma yo‘l-transport qoidalariga rioya qilishi shart.

Shart ma’nosini ifodalab kelgan gaplarga misollar;

1. Mehnat qilsang, rohat ko‘rasan.
2. Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.
3. Agar siz romanni o‘qigan bo‘lsangiz, mazmunini aytib bering.
4. Bahor kelsa, kunlar isib ketadi.
5. Agar astoydil ishlamoqchi bo‘lsangiz, sizga men yordam beraman.
6. To‘rt faslimning yozi yo‘q, sen bo‘lmasang yonimda.
7. Arpa ekkan arpa oladi, bug‘doy ekkan bug‘doy oladi.
8. Onalarda g‘am qolmas, mustahkam bo‘lsa tinchlik.
9. Siz menga boshini ko‘rsatib bersangiz, davomini o‘zim bajaraman.

Yuqorida aytib o‘tilganidek o‘zbek tili tilshunosligida gap va uning turlari sintaksisda o‘rganilgan. Bir yoki bir nechta suzdan tashkil topgan, predikativlik xususiyatiga va oxang butunligiga ega bulgan hamda nisbiy tugal fikr anglatadigan tilning muloqot birligi **gap** deyiladi. Keltirilgan ta’rifdan kurinib turibdiki, gap bir-yoki bir nechta so‘zdan tashkil topishi predikativlik xususiyati va ohang butunligiga ega bulishi hamda nisbiy tugallangan fikrni aks ettirishi lozim. Qanday gap predikativlik xususiyatiga ega bo‘lishi shart, aks xolda, gap emas so‘zlar yigindisi bulib qoladi. Gapning predikativligi uch tarkibiy qism: **modallik, shaxs va zamon** ma’nolaridan tashkil topadi. Predikativlik gapning bevosita ishtirokchilari, ya’ni tuzilishi asosi bo‘lmish ega va kesim urtasidagi munosabat orqali amalga oshiriladi.

**Modallik.** Mayl sintaktik kategoriya vositasida ifoda etilib, tasdiq bilan inkor orasidagi turli munosabatlar mumkinlik, gumonlik, reja, istak, shubxa va hokazoni o'z ichiga oladi. Bu kategoriyaning pastki va yuqori chegaralari aniq bular esa ha va yo'q so'zlaridir. Yuqorida aks ettirilgan boshqa ma'nolar manashu so'zlar orasida aks ettiriladi. 1) Tong otti. Tog'lar orasidan ko'tarilgan quyosh nuri yaylov maysalarida yarqirab ko'rindi, ko'z qamashdi.

2) Istaymanki, shu quyosh butun harorati-la she'rimning tomirida hamma vaqt oqib tursa. (S. Zunnunova). 3) Ertaga yomgir yogarmish, qattiq bo'ron bo'larmish. Keltirilgan misollarning birinchisida aniqlik, ikkinchisida shart-istak va uchda esa gumon ma'nolari aks etgan. Bu ma'nolar faqat fe'lga qo'shilgan grammatik affikslar orqali ifodalanmay, balki leksik vositalar orqali ham ifodalangan misol uchun istaymanki so'zi.

Predikativlikning tarkibiy qismi bulgan **shaxs ma'nosi** ko'pchilik tillarda shaxs grammatik kategoriyasi orqali ifodalanib, ish-harakatning bajaruvchisi uchta grammatik shaxsdan biriga taalluqli ekanini ko'rsatadi.

Uzbek tilida bu ma'no uch xil ifodalanishi mumkin:

- grammatik vositalar orqali: Kurdim. Gaplashdik.
- leksik vositalar bilan: Men gunohkor. Dalalar ko'm-ko'k.
- ham leksik, ham grammatik vosita yordamida: Men uni xayolimdan quvlar edim, u bo'lsa qalbim va fikrimga tobora qaysarlik bilan mahkam o'rnashib olaradi. (S. Zunnunova).

**Zamon ma'nosi** ham asosan tillarda grammatik zamon kategoriyasi orqali ifodalanib, uch grammatik zamonning biriga taalluqli ekanini anglatadi. Hamma tillarda ham uchta zamoni ifodalaydigan Grammatik vositalar bo'lmasligi mumkin. Zamonlarni kursatuvchi grammatik vositalar bo'lmagan holda leksik ko'rsatkichlar katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, o'zbek tilida uchala zamoni kursatadigan grammatik vositalar mavjud:

1. Men o'qiyapman — hozirgi zamon;
2. Men o'quvdim — o'tgan zamon;
3. Men boraman, borarman, bormoqchiman, — kelasi zamon.

Shu bilan birga bir vaktning uzida ham hozirgi, ham kelasi zamoni ifodalovchi vosita ham bor: Men ishlayman. Bunday holda zamoni kursatuvchi leksik (bugun, ertaga va kelasi yil...) ko'prok; kelasi zamoni ifodalash uchun xizmat qiladi. Qiyoslang: Men bugun (ertaga) ishlayman. Men ishlayman.

Shunday qilib, predikativlik to'g'risida gap borganda, ega va kesim orasidagi munosabat tushunilib, predikativlikni ifodalaydigan vositalar ko'p tillarda kesim funksiyasini o'taydigan so'zlarga kushilib keladi.

Xar bir gap o'zining maqsad va vazifasiga kura ma'lum ritmik musiqaviy tuzilishiga ega buladi. Gapning ana shunday tuzilishi uning ohangini belgilaydi. Gapning ohang tuzilishi u qanday ma'no: ta'kidlash, so'rash va hokazolarni ifodalashiga bog'liq.

Shart gaplarga o'zbek tilshunoslari bergan tavsiflarni ko'rib chiqamiz. S. Rahimov va B. Umurqulovlarning tarifiga ko'ra shart gaplar quyidagicha talqin etiladi. edi, unda edi,) ifodalaydi. Masalan: Agar o'z tilingni ko'zlasang faqat, Diyoringda kimsa topolmas rohat. Bosh gapdagi voqea - hodisaning qanday shart bilan yuzaga kelishini bildiruvchi ergash gap turi **shart ergash gap** deyiladi. Shart ergash gap aniq voqea-hodisani (- sa) mo'ljallangan voqea hodisani (-sa

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ирискулов М. Т. Тилшуносликка кириш: Дорилфунун ва педагогика ин-тлари талабаларига цулл./ Махсус мухаррир Л. Т. Б о б о х о н о в а ].— Т.: Укитувчи, 1992.— 256 б.
2. S. MUHIDDINOVA, Z. I. SALISHEVA, X. S. PO'LATOVA o'zbek tili „O'QITU V CH I“ NASHRIYOT - MATBAA IJODIY UYI TOSHKENT – 200. 146b
3. Шукуров Ш. Ўзбек тилида феъл майллари тараққиёти. – Тошкент: Фан, 1980. – 138 б.